



## **BOLA HUQUQLARI BO`YICHA TUSHUNCHANING SHAKLLANISHI**

*Ergashev Doniyorbek Maxammadali o‘g‘li  
Andijon davlat pedagogika instituti, magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bola huquqlari haqidagi g’oyalarning shakllanishi hamda rivojlanishi, ularning huquqlarini qonunchilikda himoya qilinishi, yuridik asoslarda bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilinishi, bola huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot va organlar va hozrgi kunda bola huquqlari bo‘yicha xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bola, bola huquqlari, BMT, Konvensiya, Konsepsiya, Unicef, Ombudsman, Konstitutsiya.

### **ФОРМИРОВАНИЕ ПОНИМАНИЯ ПРАВ РЕБЕНКА**

**Аннотация:** В данной статье освещаются формирование и развитие представлений о правах ребенка, защита их прав в законодательстве, юридические основы защиты прав и свобод ребенка, организации и органы, защищающие права ребенка, а также текущая международная деятельность в области прав ребенка и ее результаты.

**Ключевые слова:** Ребенок, права ребенка, ООН, Конвенция, Концепция, ЮНИСЕФ, Омбудсмен, Конституция.

### **FORMATION OF THE CONCEPT OF CHILDREN'S RIGHTS**

**Abstract:** This article discusses the formation and development of ideas about children's rights, the protection of their rights in legislation, the legal foundations for safeguarding children's rights and freedoms, organizations and bodies protecting children's rights, and the current international efforts on children's rights and their outcomes.

**Keywords:** Child, children's rights, UN, Convention, Concept, UNICEF, Ombudsman, Constitution.

Har qanday ota-onalar farzandining sog‘lom va zehnli, kasb-hunarli va el-yurtiga sodiq bo‘lib voyaga yetishini istaydi. O‘zbekistonda bu ulkan maqsadni amalga oshirish istiqlolning ilk yillaridanoq davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zero, bolalari sog‘lom yurt qudratlidir. Ayniqsa, keyingi davrda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasida muhim natijalar qo‘lga kiritilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz uchun jamiyatda begona bola yo‘q va bo‘lmasligi kerak.

Hammasi o‘zimizning, O‘zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko‘rsatsak, ishga, ilmga, kasbu hunarga, ezgu fazilatlarga o‘rgatsak, ularning yo‘lini ochib bersak, ertaga foydasi o‘zimizga, jamiyatimizga tegadi<sup>75</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bola huquqlari mustahkam kafolatlangan. Asosiy Qonunimizning 77-moddasida, jumladan, voyaga yetmaganlarning huquqlari davlat himoyasida ekani belgilab qo‘yilgan. Bosh Qomusimizning 78-moddasiga binoan esa: “Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi”. Milliy huquqiy tizimimizda bola huquqlariga oid qonunlar alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda ushbu sohada yuzdan ziyod me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu haqda fikr yuritganda, so‘nggi yillarda BMT Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalarini inobatga olgan holda, qariyb 20 ta qonun qabul qilinganini ta’kidlash lozim.

Bular jumlasiga “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida” (yangi tahrirda), “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonunlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat ijroiya kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa bir qator qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritildi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng 1992 -yil 9-dekabrda o‘zbek parlamenti ratifikatsiya qilgan bиринчи majburiy xalqaro-huquqiy shartnoma – Bola huquqlari konvensiyasidir. Uni jahon bolalarining o‘ziga xos xalqaro Konstitutsiyasi deyish mumkin. Bundan tashqari, O‘zbekiston bola huquqlariga oid o‘ndan ortiq xalqaro shartnomalarga qo‘silgan. Xususan, O‘zbekiston BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi va uning ikkita Fakultativ protokoli ishtirokchisi sifatida mazkur hujjatlarning barcha qoidasiga to‘liq amal qilib kelmoqda. Ushbu Konvensiya qoidalari milliy qonunchiligidan hamda davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatiga izchillik bilan singdirildi. Ayni paytda bolalarning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya qoidalariдан xabardorlik darajasini oshirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablarida inson va bola huquqlariga bag‘ishlangan darslar o‘tilmoqda. Shu jihatdan, 2017 yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingani ayni yo‘nalishdagi islohotlar uzviy va qat’iy, izchil va bosqichma-bosqich asosda davom etayotganining yorqin tasdig‘idir. Yangi Qonunda yoshlarga oid siyosatni, ya’ni navqiron avlodning rivojlanishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, davlat va jamiyatni rivojlantirishda ularning intellektual, ijodiy salohiyatidan unumli foydalanishni nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi belgilab berilgani g‘oyatda muhimdir. Ayni vaqtida Prezident Shavkat Mirziyoyev e’lon qilgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan konstitutsiyaviy islohotlar bu borada tubdan yangi huquqiy yangilanishlarni ko‘zda tutmoqda.

<sup>75</sup> Bolalar huquqi bo‘yicha milliy tariximizga teran nazar ([pravacheloveka.uz](http://pravacheloveka.uz))

Xususan, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, Bosh qomusimizda oila institutini rivojlantirish bo‘yicha konstitutsiyaviy asoslarni belgilab qo‘yishimiz zarur. Yanada muhimi, farzandlarimiz Yangi O‘zbekiston bунyodkorlari sifatida maydonga chiqayotgan bugungi kunda Konstitutsiyamizda yoshlarning huquq va manfaatlarini to‘la ta’minalash maqsadida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, o‘g‘il-qizlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi, ularning huquq va burchlari konstitutsiyaviy darajada o‘z aksini topishi kerak. Har qanday demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida, birinchi navbatda inson va fuqarolar huquqlarini ta’minalashga alohida e’tibor qaratiladi. Aytib o‘tish kerakki, aksariyat hollarda inson huquqlari, fuqarolar huquqlari deyilganda katta yoshdagi aholi nazarda tutiladi-yu, bolalar esa e’tibordan chetda qoladi. Biz quyida bolalar huquqlari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan mulohaza yuritmoqchimiz.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar huquqiy munosabatlarning subyektlari hisoblanadilar. Bizga ma’lumki, “huquqiy munosabatlar subyekti deganda, qonun bilan belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar tushuniladi”<sup>76</sup>. Davlat aholi boshqa tabaqalarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoyalash va ta’minalashga ham alohida e’tibor qaratadi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi BMT konvensiyasining 1-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22, 27, 28, 29-moddalari,<sup>77</sup> Oila kodeksining 71-moddalari<sup>78</sup> mazmun-mohiyatidan kelib chiqib aytish joizki, 18 yoshga to‘lmagan voyaga yetmagan shaxs bola hisoblanadi (emansipatsiya holatlari bundan mustasno). Inson tug‘ilishi bilan muayyan huquqlarga ega bo‘ladi. Ammo hali ona suti og‘zidan ketmagan bolaning o‘z xaq-huquqini himoya qila oladigan darajaga yetguniga qadar ancha vaqt kerak. Ana shu vaqt oralig‘ida uning huquqlarini qonun kuchi bilan himoya qilish zarurati paydo bo‘ladi. Shu bois xalqaro huquq tizimida jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan, jumladan, alohida e’tibor va g‘amxo‘rlikka muhtoj bolalarning huquq, imtiyoz va kafolatlarini qamrab oluvchi “bola huquqlari” degan soha yuzaga kelgan. Inson huquqlarining ajralmas qismi sanaluvchi bu soha o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Bugun dunyoning turli hududlarida siyosiy tanglik, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik uzoq vaqtlardan beri davom etayotgan bir vaziyatda u yerdagi bolalarning taqdiri, kelajagi haqida chuqurroq o‘ylab, o‘zimizga tasavvur qilib ko‘radigan bo‘lsak, jahonda bola huquqlari himoyasi masalasi qanchalik dolzarb ekani yana bir bor ayon bo‘ladi.

“Mamlakatimizda bola huquqlari himoyasi kafolatlari tobora mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston bolalari jismonan va ma’nан yetuk bo‘lib voyaga yetishi, jahon standartlari darajasida bilim hamda tarbiya olishi, orzu-maqsadlariga erishishi uchun hamma sharoitlarni yaratib bermoqda”<sup>79</sup>. Bularning barchasi xalqimizning ezgu niyatları, orzu-

<sup>76</sup> Tadjixanov U va boshq. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi.-T.Adabiyot. 2001.

<sup>77</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnmasi, 1996-yil, 2-son.

<sup>78</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. T.Adolat. 2018.

<sup>79</sup> Sh.M.Mirziyoyev. “Farzandlari sog‘lom yurtning kelajagi buyukdir”. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 6-yanvar

intilishlari, maqsadlari bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang bo‘lib, farzandlarimizning sog‘lom va hur fikrli avlod sifatida kamol topishiga xizmat qilmoqda. Qolaversa, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida Konstitutsiyamizda bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslik, nogironlar, keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish masalalari ham o‘z aksini topishi zarur. Shuni alohida ta’kidlash joizki, iqtidorli olim Muslim Atayev tomonidan nashrga tayyorlangan “Islomda bolalar huquqi” nomli kitob bu borada yana bir mo‘jaz va muhim amaliy qadamdir. Kitobda, avvalo, ulug‘ alloma Majduddin Ustrushaniyning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati, u yashagan davr, allomaning ustoz va shogirdlari, boy ilmiy merosi, xususan, “Jomi” ahkom as-sig‘or” asari haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Ma’lumki, Imom Ustrushaniy (Abul-Fath Muhammad ibn Mahmud ibn Husayn ibn Ahmad Majduddin al-Ustrushaniy) XII asr oxiri va XIII asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashab, yuksak ilmiy salohiyati bilan fiqh ilmining rivojiga munosib hissa qo‘shgan ustrushanalik ulug‘ allomadir. Majduddin Ustrushaniy fiqh ilmi jadal rivojlangan Qoraxoniylar davrida Ustrushanada tavallud topgan, fiqh ilmidan dastlabki saboqni mahalliy faqihlardan o‘rgangan.

Ishonchli qo‘lyozma manbalarga qaraganda, Mahmud va uning o‘g‘li Muhammad Ustrushaniyning ustozi Burhoniddin Marg‘inoniy hisoblanadi. Ustrushaniylar shakllangan ilmiy muhit asosan hanafiy mazhabi olimlari ta’sirida bo‘lgan. Eng muhimi, Imom Ustrushaniyning nafaqat “Jomi” ahkom as-sig‘or” asari, balki “Kitab al-fusul”, “Qurrat al-aynayn fi islah ad-dorayn”, “al-Fatovo”, “al-Qurud va-d-duyun” va “Al-as’ila val-ajviba” kabi boshqa asarlari ham o‘z davrida katta shuhrat qozongan.

Ammo, mana shu juda boy, noyob va nodir ilmiy-ma’rifiy, madaniy va ma’naviy meros shu paytgacha o‘rganilmay kelingan edi. E’tiborli jihat shundaki, Muslim Atayev o‘z ilmiy izlanishlari bilan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga salmoqli hissa qo‘shdi. Natijada bu boradagi tarixiy ma’lumotlar tartibga solindi, tizimlashtirildi va o‘zaro qiyosiy tahlildan o‘tkazildi. Albatta, Majduddin Ustrushaniyning “Jomi” ahkom as-sig‘or” asari bundan sakkiz yuz yil avval dunyo tarixida bola huquqlariga bag‘ishlab yozilgan ilk huquqiy manba ekanini alohida qayd etish darkor. Bunday nodir asar mavjud ekanining o‘ziyoq, fikrimizcha, olis tarixda yurtimizda zabardast ulamolar va fiqhshunos olimlar tomonidan ko‘pgina huquqiy munosabatlar, shu jumladan, islom huquqining tizimi, mohiyati, manbalari va rivojlanish bosqichlari mukammal o‘rganilib, bu borada nodir asarlar yaratilganini yaqqol tasdiqlab turibdi. “Jome” ahkom as-sig‘or” islom huquqshunosligiga oid qimmatli manbadir. Shu bois bu kitob ilk marta 1982-yili iroqlik professor Abdulhamid Abdul Xoliqu al-Bayzaliy tomonidan chop etilgan. Asarning ikkinchi nashri esa Qohirada “al-Azhar” universiteti professori Abu Mus’ab al-Badriy hamda o‘qituvchi Mahmud Abdurrahmon Abd al-Mun’im tomonidan tayyorlangan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston musulmonlari idorasini raisi, muftiy Usmonxon Alimov va tarix fanlari nomzodi Muslim Atayev “Jomi” ahkom as-sig‘or”ning Misrda chop etilgan ikkinchi nashri bilan Toshkentda saqlanayotgan 5 ta qo‘lyozma nusxalarini solishtirib ko‘rganiga alohida

e’tibor qaratish darkor. Nega deganda, shu jarayonda asarning Misr nashrida jiddiy kamchiliklar borligi aniqlangan.

Ayni shu nuqtai nazardan, kitobning tuzatilgan va to’ldirilgan arab tilidagi nashrini, shuningdek, o‘zbek kitobxoniga tuhfa etilayotgan ushbu nashrni tayyorlashda bunday nuqsonlar bartaraf etilgani tahsinga sazovor.

Asrlar davomida huquqsizlik va kamsitilganlik holatida yashab kelgan insonlar, o‘zining dunyoga kelish va shakllanish davridagi «tug‘ma huquqlar»ga egaligi g‘oyasi ijtimoiy ongda tub o‘zgarish hosil qildi. Bu g‘oya kishilarning yoshi va boshqa farqlariga bog‘liq holda huquqiy tabaqalanishidan uzoq edi. Aksincha, uning hayotiy ahamiyati shundaki, u har bir shaxs, avval boshdanoq ega bo‘lgan huquq va erkinliklarga oid qoidalarni rivojlantiradi. Vaholanki, «tug‘ma» atamasi o‘zining mohiyatiga ko‘ra, inson huquqlari uning tug‘ilganidan boshlab bir vaqtning o‘zida u bilan birga vujudga kelishini bildiradi. Demak, inson huquqlari, xoh u o‘g‘il, xoh u qiz bo‘lsin, bola huquqlari bilan boshlanadi. XX asrga qadar, ko‘p ming yillar davomida bola ijtimoiy ongda alohida hurmat va e’tiborga sazovor shaxs sifatida qabul qilinmagan bo‘lsa, mazkur nazariya jamiyat va davlatning ancha huquqsiz, himoyasiz a’zosiga bo‘lgan munosabati o‘zgarishiga qay darajada ta’sir ko‘rsatganligini ayon qiladi.

Tug‘ma huquqlar konsepsiysi jahonda inson huquqlari, xususan, bola huquqlarini himoya qilish harakatining rivojlanishiga chuqur g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatdi.

Uning tubdan o‘zgartiruvchan ta’sir ko‘rsatkichlari bo‘lib, hozirgi dunyoda mavjud bola huquqlari sohasidagi xalqaro va milliy andozalar xizmat qilishi mumkin.

Bola huquqlarini inson huquqlari umumiyligi konsepsiyasidan ayri holda ko‘rib chiqish mumkin emas. Buning ustiga, bola huquqlari inson huquqlari konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bola huquqlari konsepsiysi – mazmunan inson huquqlari to‘g‘risida konsepsiya, lekin hali ulg‘aymagan inson – shu sababli o‘z huquqlari va erkinliklarining kuchliroq himoya qilinishiga, ayniqsa, muhtoj inson to‘g‘risidagi konsepsiadir.

Bola huquqlari masalasining rivojlanishi to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, albatta, bola huquqlariga oid g‘oya va qarashlar o‘z navbatida rivojlanib, normativ tus ola boshladi. Bu esa, bu sohaga oid maxsus huquqiy normalar vujudga kelayotganligini ko‘rsatib berdi. Bu boradagi dastlabki normalardan biriga 312-yilda Imperator Konstantin bolani o‘ldirib yuborish va tashlab yuborishning oldini olishga qaratilgan qonunni qabul qilganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

XX asrning boshlariga kelib, vrach A.V. Siromyatnikov bola huquqlarini himoya qilishning quyidagi tizimini taklif etadi:

– eng asosiy holati – tashlab ketilgan bolaning huquqlari barcha qulay usullar orqali himoya qilinishi lozim;

– agarda, hududlarda vasiylik bo‘limlari ma’naviy va moddiy ko‘mak berib kelsa, bola va uning ota-onasi hamda oilani himoya qilgan bo‘ladi;

- go‘daklar uyiga joylashtirilgan bolaga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatilsa, go‘dakka tibbiy-ijtimoiy himoya amalga oshirilgan bo‘ladi;
- har tomonlama oilaviy patronaj amalga oshirilishi lozim;
- noqonuniy tug‘ilgan bolalalarining huquqiy holatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy qoidalar ishlab chiqilishi kerak.

Dunyoda inson huquqlarini himoya qilish yo‘lida kuchayib borayotgan umumiylar harakat jarayonida jamiyatning eng murg‘ak qismi – bolalarni muhofaza qilish muammosi alohida o‘rin tutadi.

Bola huquqlariga bag‘ishlangan huquqiy adabiyotlarda “bolalar jamoatchilik nazariga tushgan vaqt XIX va XX asrlar oralig‘iga to‘g‘ri keladi”, deb qayd etiladi. Ushbu fikrni Yevropada voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha kriminalistlar, sudyalarining xalqaro uyushmalari yuzaga kelganligi ham tasdiqlaydi.

Yangi, XX asr bo‘sag‘asida, ya’ni 1890-yili kriminalistlar Kongressi bo‘lib o‘tdi. Unda qabul qilingan rezolyutsiyaga binoan, 14 yosh chegarasi belgilanib, undan kichik bo‘lganlarni jinoiy jazoga tortish taqiqlandi. Ikki yildan so‘ng, ya’ni 1892-yilda Bolalar ustidan vasiylik qilish Xalqaro jamiyatini tuzildi.

Inson farovonligi to‘g‘risida qayg‘urish davlatning majburiyati deb tan olinadi. Bu kabi majburiyat inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlarda qayd etilgan. Huquqiy e’tirof etilishi tufayli inson huquqlari himoyasi, uning ayol yoki erkak, katta odam yoki bola ekanligidan qat’i nazar tengligi tamoyili, tarixda ilk bor demokratik tuzumli davlatlar siyosatining uзвиy qismiga aylandi.

Inson huquqlari g‘oyasi rivoji murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratdir. Inson huquqlari konsepsiysi, ayniqsa, ilg‘or, yangicha demokratik qarash vakillari tomonidan nafaqat qabul qilindi, balki u rivojlantirila bordi va jamiyatning mazkur ilg‘or fikrli qismi umum tenglik va erkinlik g‘oyasini qo‘llab-quvvatlay boshladi. Ammo, qayd etish kerakki, bu g‘oyaga qarshi sifatida konservativ qarash vakillari ham, shu qadar kuchli va yashovchan bo‘lib chiqdiki, u, afsuski, ayrim hollarda va mamlakatlarda bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda.

Bola huquqlari normativ shaklda rivojlanishining yana bir shakli bolalarga oid maxsus xalqaro normalarning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Jumladan, Millatlar Ligasi tomonidan, 1924-yil 24-sentabrda bola huquqlariga oid maxsus dastlabki xalqaro-huquqiy hujjat – Jeneva deklaratsiyasi qabul qilingan edi. Mazkur hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusi Bolalarni qutqarish xalqaro ittifoqi (Tashkilot asoschisi Eglantin Djeeb) tomonidan ilgari surilgan edi. Mazkur hujjat 5 ta asosiy prinsipdan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat edi:

**Birinchi prinsip** – bola yaxshi rivojlanishi uchun ham moddiy, ham ma’naviy imkoniyat yaratib berish lozim;

---

<sup>80</sup> Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas’ul muharrir A.X. Saidov: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.-B.

**Ikkinci prinsip** – och bola ovqatlantirilishi, kasal bola parvarish qilinishi, axloqsiz bola tarbiyalanishi, qarovsiz bola va yetim bolaga yashashi uchun boshpana berilishi lozim;

**Uchinchi prinsip** – halokat (falokat) paytida bolaga birinchi yordam ko‘rsatilishi lozim;

**To‘rtinchi prinsip** – bolaga mavjud bo‘lishi uchun vosita topishiga imkoniyat yaratib berilishi va u barcha shakldagi ekspluatatsiyadan himoya qilinishi lozim;

**Beshinchi prinsip** – bola, kelajak avlod uchun uning yaxshi sifatlari foydali bo‘ladi, degan ongda tarbiyalanishi lozim.

Inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari nazariyasi va amaliyoti rivojining sifat jihatidan yangi bosqichi – Ikkinci jahon urushidan keyingi davr hisoblanadi, chunki urushning og‘ir oqibatlaridan biri, qariyalar, ayollar bilan bir qatorda, jamiyatning yana bir ojiz qatlami hisoblangan bolalarning og‘ir qismati hisoblanadi.

1945-yili BMT tashkil topishi bilan inson huquqlarining universallashuv jarayoni boshlandi. Shu davrdan inson huquqlariga xalqaro muammo sifatida qarala boshlandi. Bu esa, inson huquqlarining buzilishi va poymol etilishi davlatning ichki muammosi bo‘lib qolmasligini anglatardi. U endilikda o‘z universalligi tufayli inson huquqlarining qo‘pol va tizimli tarzda buzilishi bilan bog‘liq holatlarning BMT kabi xalqaro mexanizmlar tomonidan ko‘rib chiqilishi obyektiga aylandi.<sup>81</sup> Ushbu bosqichda inson huquqlariga oid xalqaro me’yoriy hujjatlar yaratilishi bilangina cheklanmay, balki ularga rioya qilinishi hamda amalga oshirilishi ustidan nazorat qilishning xalqaro mexanizmlarini yaratishga ham jiddiy e’tibor qaratildi.

BMT tashkil etilgandan keyin inson huquqlari masalasiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lsada, u mafkuraviy kurashning obyektiga ham aylanib qoldi. “Sovuq urush” davrida avj olgan keskin mafkuraviy kurash sharoitida kapitalistik mamlakatlar vakillari fuqarolik va siyosiy huquqlarning ustuvorligi g‘oyasi uchun zo‘r berib kurashdilar. Sotsialistik mamlakat vakillari esa, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning nisbatan muhimligini e’tirof etish kerakligini uqtirdilar.

Biroq, qarashlar naqadar turli-tuman bo‘lmasin, huquqlarning har bir avlodni so‘zsiz o‘z ijtimoiy qadr-qimmatiga egadir. Bir avlod huquqlari boshqasini to‘ldirib keladi. Uch avlod huquqlari ichidan o‘rin olgan huquq turi har bir inson uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega. Shu ham e’tiborga molikki, ikki qarama-qarshi siyosiy tizim vakillari orasidagi keskin munozaralar oqibatida umumiyligi kelishuv, bitimga erishildi. 1966-yilgi xalqaro paktlar: bir tarafdan, fuqarolik va siyosiy huquqlar, ikkinchi tarafdan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar xususida erishilgan natijalarga yorqin misol bo‘la oladi.<sup>82</sup>

Xalqaro paktlar qoidalari teng ravishda bolalarga ham ta’sir kuchini o‘tkazadi. Masalan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 23-moddasi nikohda bo‘lgan yoki u bekor qilingan holatda ham “barcha bolalarni himoya qilish zarurati” to‘g‘risidagi qoidaga ega. Xuddi shu Paktning 24-moddasida qayd etilishicha, har bir bola “uning kichik yoshli

<sup>81</sup> BMTning balog‘atga yetmagan bolalar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari («Ar-riyod dasturiy prinsiplari»). <http://Rgavo.uz>

<sup>82</sup>Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar (to‘plam). – T.: «Adolat», 2017.-B .55-57

sifatidagi holatida oilasi, jamiyat va davlat tomonidan” talab etilgan himoya choralari huquqiga egadir.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda barcha bolalarga nisbatan biron-bir kamsitisizsiz “maxsus muhofaza qilish va ko‘maklashish choralarini” qabul qilish zarurati ko‘zda tutiladi. Bolalar va o‘smlarlarni iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoya qilishga alohida e’tibor beriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [Bolalar huquqi bo‘yicha milliy tariximizga teran nazar \(pravacheloveka.uz\)](#)
2. Tadjixanov U va boshq. O‘zbekiston Respubliaksi konstitutsiyaviy huquqi.-T.Adabiyot. 2001.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnmasi, 1996-yil, 2-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. T.Adolat. 2018.
5. Sh.M.Mirziyoyev. “Farzandlari sog’lom yurtning kelajagi buyukdir”. “Xalq so’zi”, 2017-yil 6-yanvar
6. Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas’ul muharrir A.X. Saidov:- Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.-B.
7. BMTning balog‘atga yetmagan bolalar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari («Ar-riyod dasturiy prinsiplari»). <http://Rgavo.uz>